



13.00.00	13.00.06	01.00.00
13.00.01	13.00.07	02.00.00
13.00.02	13.00.08	03.00.00
13.00.03	13.00.09	09.00.00
13.00.04	07.00.00	10.00.00
13.00.05	19.00.00	11.00.00

№5/2025

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga
ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 166 sahifa,
14-may, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Qirg'izboyev Abdug'afvor Karimjonovich – Tarix fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)

Panjjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbiarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

EDITOR-IN-CHIEF:

Qirg'izboev Abdug'affor Karimjonovich – Doctor of Historical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024 yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko’ra, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo’yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan №C-5669245
reyestr raqami tartibi bo’yicha
ro’yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

MUNDARIJA

Nutq o'zlashtirish mashg'ulotlarida maqol va rivoyatlardan foydalanish texnologiyasi	12
<i>Azimova Nodira Xikmatovna</i>	
Matematikada o'tkaziladigan sinfdan tashqari viktorina, matematik ertalik va matematik musobaqalarni tashkil etish.....	15
<i>Azizova Dilnoz Yo'ldashevna</i>	
Adabiy ta'limda fanlararo integratsiyani rivojlantirishda didaktik o'yinlarning o'rni	19
<i>Hasanova Bahora Isa qizi</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darsliklaridagi kognitiv-pragmatik mashqlar turlari va mazmuni.....	22
<i>Jahonova Nargiza Yunus qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanidan uyga vazifalarni tashkil etishda QUIZ testlardan foydalanish	28
<i>Jamolova Nodirabegim Jobir qizi</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishning dolzarbligi	32
<i>Mazgarova Durdona Shuxrat qizi, Mirzakamolova Komola Xojiakbar qizi</i>	
Understanding and Using Articles in English: A Practical Approach.....	35
<i>Mustafoyeva Nigina Shuhrat kizi</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari.....	40
<i>Nosirova Dilfuza</i>	
Ona tili va o'qish savodxonligi fanining boshlang'ich ta'limdagi o'rni va ahamiyati	45
<i>Otamurodova Mahfirat Husan qizi</i>	
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasidagi qaror va qonunlari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishga zamonaviy yondashuv	49
<i>Imamova Nilufar Zabiyyulla qizi, Po'latova Mahfuza To'liqin qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining kasbiy etikasi va madaniy salohiyatini shakllantirish omillari...	52
<i>Qodirova Fotima Rashidovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda xorijiy tajribalarining qiyosiy tahlili	55
<i>Shokirova Madinabonu Shomurod qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda mental arifmetikaning o'rni.....	59
<i>Sulaymonova Nigora Olimjon qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda ta'lim samaradorligini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish mexanizmlari (Singapur ta'lim tizimi misolida).....	63
<i>Taniqulova O'g'itoy Fahriddin qizi</i>	
SWOT texnologiyasi asosida talabalarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish modeli.....	66
<i>Abdusalomova Saidabonu Ziyovuddin qizi</i>	
Механизмы формирования характера трудолюбия в младшем школьном возрасте	69
<i>Зияев Амаль Толибович</i>	
Современные методы обучения иностранному языку в начальных классах	72
<i>Косимова Шахризода Бахромжон кизи, Рузметова Хилола Абдушариповна</i>	
Ислам в духовных исканиях Льва Толстого: уважение великого писателя к религии и пророку	75
<i>Мамасодикова Махзуна Жалол кизи</i>	
Проблемы и особенности перевода с узбекского языка на русский: анализ ошибок и пути решения	78
<i>Холмуродова Дилдора Хусниддиновна</i>	
Развитие русского языка в современном мире	80
<i>Чернова Татьяна Алексеевна, Темиров Руслан Расул угли, Хасанов Сайхунбек Килич угли</i>	
Ona tili ta'limida muqobil javobli testlardan foydalanishning afzalliklari.....	83
<i>Komilova Lola Nasilloevna</i>	
Maxsus pedagogikani o'qitishda klinik, tarixiy, psixologik, didaktik materiallarni integrativ o'qitish metodlari	91
<i>Djavlanova Nodira Xamza qizi</i>	



Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining loyihalash kompetentligini shakllantirish	94
<i>Xidirova Dildora Zayniddinovna</i>	
Formation of Cultural Tolerance in Preschool Children Through Foreign Language Learning Using Digital Educational Resources	98
<i>Dadakhanova Mohlaroyim Muratvayevna</i>	
Ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash va qo'llab-quvvatlashning samarali usullarini o'rganish	106
<i>Ataullayev Fazliddin Fahriddin o'g'li</i>	
O'quv jarayonida sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanishning ta'limiy aspektlari tahlili	110
<i>Zubayda Barnoyeva</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional savodxonlikni shakllantirishning nazariy va metodik manbalari.....	116
<i>Mirxalilova Nargiza Akbarovna, Usmanova Mashkura Mirzoroximovna, Xunarova Lobar Akbaraliyevna</i>	
Butun dunyoda nogiron bolalarga nisbatan munosabat: stereotiplar va ularni yengish	120
<i>Axmadova Shahloxon Voxid qizi</i>	
Ijtimoiy va pedagogik riabilitatsiyon deviant xulqi bo'lgan o'smirlar.....	124
<i>Abduvaliyeva Mashhura Abduvohid qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnat munosabatlarini tartibga solishda sog'lom ish muhitini yaratish.....	127
<i>Qosimova Shaxnoza Nuriddinovna</i>	
Maktab o'quvchilarida chet tili bo'yicha strategik kompetensiyani shakllantirish: psixolingvistik asoslar	131
<i>Akmalxonova Nodira</i>	
Chet tillarini o'zlashtirishning psixolingvistik asoslari: A. A. Leontyev qarashlarining tahlili	137
<i>B. O. Toshboyeva</i>	
O'quvchilarni tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish asosida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning xususiyatlari mazmuni.....	143
<i>Ro'zimatov Jamshid Alisher o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf "tarbiya" darslarida o'quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan mavzularning mazmun-mohiyati.....	148
<i>Xoliqulova Moxichehra Nodir qizi</i>	
Развитие деонтологической компетентности будущих учителей предмета "воспитания"	152
<i>Вахобов Анвар Абдусаттор угли</i>	
Obrazli tafakkur – boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stiruvchi vosita.....	155
<i>Turg'unova Xumora Xusniddin qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda janriy xususiyatlariga ko'ra ifodali o'qish ko'nikmasining yo'nalishlari	158
<i>Tirkasheva Xumora Nurali qizi</i>	
Sharof Boshbekovning "Temir xotin" dramasi dramatik diskursning semantik va sintaktik qurilishi	162
<i>Mavlanova Xafiza Gulmurodovna</i>	



SHAROF BOSHBEKOVNING “TEMIR XOTIN” DRAMASIDA DRAMATIK DISKURSNING SEMANTIK VA SINTAKTIK QURILISHI

Mavlanova Xafiza Gulmurodovna

Renessans ta'lim universiteti

Filologiya kafedrası o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dramatik nutqning asosiy subyekti – inson shaxsining markaziy o'rni hamda antroposentrik yondashuv asosida janrning tarixiy rivojlanishi tahlil qilinadi. Aristotel va Goratsiy nazariyalaridan boshlab Yevropa Uyg'onish davri dramaturglarining (Lope de Vega, Kornel, Didro, Shiller, Gyote, Lessing) qarashlari ko'rib chiqiladi. Tragediya, komediya va "o'rta" janr farqlari, Didroning "o'rta holat" g'oyasi, M. Baxtin va V. Frolov nazariyalari, dramatik diskurs tuzilishi (Freyt piramidasi), sahna ko'rsatmalari, dialog va monologlarning lingvistik xususiyatlari, dramatik matn va diskursning kognitiv hamda paralingvistik elementlari atroflicha yoritiladi.

Kalit so'zlar: dramatik nutq, antroposentrizm, tragediya, komediya, o'rta janr, dramatik nazariya, Freyt piramidasi, sahna yo'nalishlari, dialog, monolog, dramatik nutq, paralingvistik elementlar.

Abstract: This article examines the centrality of the human subject in dramatic speech and the historical evolution of the genre through an anthropocentric lens. It reviews Aristotelian and Horatian theories, Renaissance dramatists (Lope de Vega, Corneille, Diderot, Schiller, Goethe, Lessing), distinctions between tragedy, comedy, and the "middle" genre, Diderot's "middle state," and the theories of Mikhail Bakhtin and Viktor Frolov. The structure of dramatic discourse (the Freytag pyramid), the role of stage directions, linguistic features of dialogue and monologue, and cognitive and paralinguistic elements of dramatic text are comprehensively discussed.

Key words: dramatic speech, anthropocentrism, tragedy, comedy, middle genre, drama theory, Freytag pyramid, stage directions, dialogue, monologue, dramatic discourse, paralinguistic elements.

Аннотация: В статье анализируется историческое развитие жанра, исходя из центральной роли человеческой личности, главного субъекта драматической речи, и антропоцентрического подхода. Отталкиваясь от теорий Аристотеля и Горация, рассматриваются взгляды европейских драматургов эпохи Возрождения (Лопе де Вега, Корнель, Дидро, Шиллер, Гете, Лессинг). Подробно рассматриваются различия между трагедией, комедией и "средним" жанром, идея Дидро о "среднем положении", теории М. Бахтина и В. Фролова, структура драматического дискурса (пирамида Фрейта), сценические ремарки, языковые особенности диалога и монологов, когнитивные и паралингвистические элементы драматического текста и дискурса.

Ключевые слова: драматическая речь, антропоцентризм, трагедия, комедия, средний жанр, теория драмы, пирамида Фрейта, ремарки, диалог, монолог, драматический дискурс, паралингвистические элементы.

KIRISH

Dramatik nutqning asosiy subyekti – epik asarlardagi voqelik yoxud lirikadagi ichki holat emas, balki to'laqonli inson shaxsidir. Bu xususiyat sababli dramatik nutqda voqea, syujet va fabulaning rivojlanishi bevosita inson shaxsining faol ishtirokida namoyon bo'ladi. So'nggi yillarda tilshunoslik va adabiyotshunoslikda antroposentrik paradigma ustuvorlik kasb etib borayotgani sababli dramatik nutq va uning tuzilishi tobora dolzarb tadqiqot obyektiga aylanmoqda. Drama janri va uning nazariy asoslariga munosabat tarixiy jarayon davomida sezilarli darajada o'zgarib bordi. Aristoteldan keyin Goratsiy drama nazariyasini rivojlantirib, personaj xatti-harakatlarining tabiiyligi va yoshga mos kelishini ta'kidladi. U dramatik voqeani ichki sabablar asosida rivojlantirish zarurligini qayd etib, tashqi omillarning konfliktga aralashuvini inkor etadi. Yevropa Uyg'onish davrida drama san'ati bo'yicha izlanishlar yangi bosqichga ko'tarildi. Bu yo'nalishda Lope de Vega, Kornel, Didro, Shiller, Gyote, Lessing kabi adabiyotshunoslar va dramaturglar muhim nazariy asoslar yaratdilar. Ushbu tadqiqotda ularning barcha ishlari to'liq yoritilmaydi, balki o'zbek dramaturgiyasida inson obrazining tahliliga asos bo'ladigan nazariy fikrlar sharhlanadi.



XVIII asrgacha dramada fojiviy (tragediya) va kulgili (komediya) holatlar yetakchi bo'lgan bo'lsa-da, keyinchalik "drama" atamasi o'rtaliq janr sifatida qarala boshlandi. Didro komediya va tragediya o'rtasidagi axloqiy ziddiyatlar, insonning holati va ichki kechinmalari uchun "o'rta masofa" zarurligini ta'kidlagan. Unga ko'ra, inson har doim ham kulmaydi yoki faqat qayg'uga botib yashamaydi. Demak, bu ikki janr oralig'idagi dramatik shakl – drama – inson holatining yanada to'laqonli ifodasidir. Avvalgi tadqiqotlarda, odatda, bir davr yoki yagona janr doirasida tahlil olib borilgan bo'lsa, zamonaviy tadqiqotlar semantik va pragmatik jihatdan dramatik janrlararo farqlarni tahlil qilishga yo'naltirilmoqda. Ayniqsa, o'xshatishlar, iboralar, maqollar va mavzularning tragediya hamda komediya asarlarida qanday ifoda topishini qiyosiy o'rganish yangi ilmiy xulosalarga olib kelishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dramaning paydo bo'lish sabablari va uning o'ziga xos xususiyatlarini anglashga intilish XVIII asrda sezila boshlagan edi. Bu boradagi dastlabki kuzatishlar Didro va Shiller nomlari bilan bog'liq. Ushbu harakatlardan so'ng dramaturgiyada insonni uning murakkab tabiati bilan tasvirlash, uni muayyan g'oyaning timsoli sifatida ko'rsatish tendensiyasi kuchaydi. Mifologik obrazlar, ilohiy timsollar, afsonaviy qahramonlar va aql bovar qilmaydigan jasoratlar ko'rsatuvchi pahlavonlar o'rnini asta-sekin inson obrazi egallay boshladi. Janrlarning muayyan davrda o'zgarishi o'sha davr insonining voqelikka munosabati o'zgarganini ko'rsatadi. Shiller va Gyotening zamonaviy dramani qayta shakllantirish haqidagi maktublarida ana shu g'oya asosiy o'rin tutadi. Shiller Gyotega yozgan xatida shunday deydi: "Sizning ta'siringiz orqali menga qandaydir epik kuch singib ketgandek tuyuladi, ammo bu kuch dramatik jarayonga xalaqit bermaydi, deb o'ylayman". [Шиллер Ф. Собр. сочинения, т. 7. "Письма". – М., Гослитиздат, 1957. – С. 482.]

Gyugo drama tushunchasiga kengroq ta'rif beradi. Uning fikricha, yangi davr adabiyoti, qaysi janrga mansub bo'lishidan qat'i nazar, dramatik xususiyatga ega.

Albatta, bu nazariy qarashlar o'zbek dramaturgiyasining shakllanishida bevosita rol o'ynagan, deyishdan yiroqmiz. Biroq, milliy dramaturgiya va teatr san'atining shakllanishida tatar, ozarbayjon va rus teatrlarining ta'siri bo'lganini hisobga olsak, ilk o'zbek dramaturglarimiz janrning nazariy asoslaridan xabardor bo'lganliklari aniq. Drama nazariyasiga oid qarashlar tarixi ikki ming yildan oshgan bo'lsa-da, uning yangi namunasi va drama haqidagi munozaralar bugungi kunda ham davom etmoqda. Masalan, M. Baxtinning dramatik asarlar haqidagi mulohazalari haqiqatdan unchalik yaqin emas. U shunday yozadi: "Dramatik asarlar tarixiy rivojlanish jarayonida o'ziga xos qat'iy qoidalar va kanonik xususiyatlarni saqlab qoldi. Turli davrlardagi oqimlar va yo'nalishlar janrning asosiy masalasini, ya'ni qonuniylashgan tuzilishini o'zgartira olmadi. Aristotel davridan bugungi kungacha bu shakllangan janrlar nazariyasiga aniq yangilik yoki o'zgarish kiritilmadi". [Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. С. 482.]

Adabiyotshunos V. Frolov o'zining "Dramatik janrlar taqdiri" asarida XX asrning 80-yillarigacha bo'lgan dramatik janrlarning tasnifini keltiradi. Uning fikricha, dramning sof janrlari sifatida tragediya, komediya, drama va melodrama ajratiladi. Keyinchalik u bu janrlarning ichki shakllariga e'tibor qaratadi. Masalan, melodramaning ichki turlari sifatida quyidagilarni sanab o'tadi: detektiv xususiyatiga ega melodrama; maishiy melodrama – "ichki monolog"; melodrama-tragediya; melodrama-komediya; melodrama-vodevil; qahramonlik xususiyatiga ega melodrama.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

"Dramatik" va "drama" tushunchalarini farqlash bilan birga, dramatik matn va dramatik nutq kabi o'zaro bog'liq tushunchalarni ajratish zarur. An'anaviy ravishda matn "og'zaki belgilar ketma-ketligi" sifatida tushunilsa, diskurs (fransuzcha discours – nutq) "ekstralingvistik omillar – pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik jihatlar bilan birgalikda izchil matn" sifatida namoyon bo'ladi [Feindt, Peter H.; Oels, Angela (2005). "Does discourse matter? Discourse analysis in environmental policy making". Journal of Environmental Policy & Planning. 7(3): 161–173. doi:10.1080/15239080500339638. S2CID 143314592].

Diskurs, shuningdek, nutqning paralingvistik xususiyatlarini (mimika, imo-ishora) ham o'z ichiga oladi. Ushbu ikki tushunchaning umumiy qabul qilingan ta'riflarini taqqoslash ular o'rtasidagi fundamental farqni ko'rsatadi, bu esa tadqiqot uchun muhim ahamiyatga ega. "Diskurs" atamasi G'arb teatr nazariyasiga F. de Sossyur va boshqa mutafakkirlar orqali kirdi. Ular teatr matnini tahlil qilishda bir qator qoidalarni ilgari surdilar, bunga ko'ra ibora tilga emas, nutqqa taalluqlidir. A. Ubersfeld dramatik diskursni "teatr asarida yaratilgan lingvistik belgilar tizimi" deb ta'riflaydi, ammo bu ta'rif, uning fikricha, biroz noaniq, chunki u tor ma'noda nutqdan ko'ra teatrlashtirilgan matnning so'z birikmalariga ko'proq mos keladi [Ubersfeld A. Lire le théâtre. Paris: Éditions Sociolates, 1977].

TAHLIL VA NATIJALAR

Qadimgi pyesalar an'anaviy ravishda birdamlik va yaxlitlik hissini singdirishga qaratilgan bo'lib, bu maqsadga erishish uchun klassik poetik qonunlardan biri – "uch birlik" g'oyasi edi: syujet, joy va vaqt birligi.

Aristotelning Poetika asarida faqat syujet birligi haqida aniq dalillar keltirilgan. Jahon dramaturgiyasida dramatik diskurs tuzilishi bo'yicha turli qarashlar mavjud, ulardan eng mashhuri Fregreyt piramidasi deb ataladi. Dramatik diskursning tuzilmaviy xususiyatlari ushbu piramida orqali ifodalanadi. Fregreyt besh pardali dramalar asosida piramidani shu tarzda shakllantiradi. Uch pardali dramalarda esa piramida shakli o'zgarib qolgan, lekin ta'kidlangan jihatlar uch parda doirasida joylashtiriladi. Dramatik diskursning semantik o'zgarishlari uning tuzilishi bilan bevosita bog'liq. Boshlang'ich nuqtada yuzaga kelgan nutqiy vaziyat voqealar kulminatsiyaga yetguncha murakkablashib boradi. Masalan, Temir xotin dramasi voqelik konflikt bilan boshlanadi:

Qo'chqor (uy tomonga): Ho', tirikmisan?.. (Tipirchilaydi.) Yechib qo'y darrov, ho-o'!.. Qumri, deyaqman, jahlim chiqsa nima bo'lishini bilasan-a? Yaxshilikcha bo'shat! (Bir oz kutib.) Ie, bir balo bo'lganmi bunga?.. Oxirgi marta aytyapman, agar hozir yugurib kelib, qo'limni bo'shatmasang...

Ichkaridan Qumri chiqadi. U o'ttiz-o'ttiz beshlarda, lekin yoshiga nisbatan ancha katta ko'rinadi.

Qumri (arazli): Nima qilasiz?

Qo'chqor: Qo'yvoraman!

Qumri (xo'rliqi kelib): Nima?..

Qo'chqor: Pattangni qo'lingga tutqazaman!

Konfliktning boshlanishi qahramonlarning o'zaro ziddiyatlari orqali nutqda ko'tarilish ohangini aks ettiradi. Qumrining ketishi, Olimjonning kelishi va Alomatning tanishtirilishi konfliktning boshlang'ich nuqtasini ifodalaydi. Bu Fregreyt uchburchagining ikkinchi aktiga to'g'ri keladi. Alomatga qizil mikrosxema o'rnatilishi esa kulminatsiya bosqichini aks ettiradi, chunki bu nuqtada muallifning kommunikativ maqsadi aniq namoyon bo'ladi. Kulminatsiyada qahramonlar nutqining tempi tezlashadi, direktiv va assertiv (J. Searl ta'rifi bo'yicha) nutq aktlari faollashadi:

Alomat: O'zingizga bir tashqaridan qarang, qaysi zamonda yashayapsiz? Kimga o'xshaysiz? Oyog'ingizga ilib olgan kalishingiz qayerdan chiqqan? Yangiyo'ldanmi, Toshkentdanmi?

Qo'chqor (oyog'ini tortib): Kalishmas, patinka...

Direktiv nutq akti fikrni to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirishga, ochiq va implikatsiyasiz ifodalashga asoslanadi. Muallif o'z maqsadiga erishish uchun direktiv nutq aktidan foydalanadi:

Alomat: "Paxtakorman" deb ko'kragingizga mushtlaysiz-u, ko'rpangizga paxta topolmaysiz! Manavi nima? Shu issiqda kim neylon ko'ylak kiyadi? Bu dunyoga kelib nima ko'rdingiz, Qo'chqor aka? "Ikki marta Toshkentga borganman" deb maqtanasiz, odamlar "Oq dengiz-u Qora dengiz" qilib yurishibdi! "Ha endi, ular boshqacha odamlar-da" deysiz. Qanaqa, boshqacha? Nimasi boshqacha? Nahotki, oddiygina insoniy g'urur bo'lmasa?! Shu darajaga yetgansizki, bora-bora undaylarga havas ham qilmay qo'ygansiz! Havas qilaverib, orzu qilaverib charchagansiz, holdan toygansiz! (Sharof Boshbekov "Temir xotin"). Ingliz dramatik nutqida ham xuddi shunday tuzilishni kuzatish mumkin. Tahlil qilingan dramalarning aksariyatida Fregreyt piramidasi asosida qurilgan tuzilish mavjud. Xususan, "Hamlet" tragediyasining birinchi aktida asosiy voqealar haqida ma'lumot beriladi, bu akt asar uchun ekspozitsiya vazifasini o'taydi: bosh qahramonlar tanishtiriladi va ziddiyat taqdim etilishi orqali tomoshabin keyingi harakatlarga tayyorlanadi. Masalan, Daniya shahzodasi Gamletning birinchi pardasida bosh qahramon Gamlet taqdim etiladi va u o'lgan otasining sharpasi bilan uchrashadi. Sharpa otasining o'limida qirol Klavdiy aybdor ekanligini aytadi. Natijada, Gamlet qasos olishga qasamyod qiladi va voqealar shu yo'nalishda rivojlanadi.

Ikkinchi akt odatda asosiy muammoni rivojlantiruvchi yangi holatlar yoki ziddiyatlarni kiritish orqali syujetni rivojlantiradi. Gamlet harakat qilish va shubhalari o'rtasida ikkilanadi. Tomoshabinlar uni introvert va melankolik qahramon sifatida tanishadi. Bundan tashqari, Gamlet o'z rejalarini qirol Klavdiydan yashirish uchun "aqlardan ozgan" ko'rinishga kiradi.

Dramatik diskurs nafaqat og'zaki nutq, balki shartli (vizual) vositalar – imo-ishoralar, yuz ifodalari, harakatlar, kostyumlar, rekvizitlar va sahna manzaralari orqali qahramonlarning ruhiy holati, ichki dunyosi va ziddiyatlarini aks ettiradi. Nutq og'zaki harakat sifatida ritorik darajada namoyon bo'ladi. I. N. Chistyuxin ta'rifi ko'ra, dramatik diskurs teatrda "gapirish" va "harakat qilish" ma'nolarini anglatadi. Qahramonlar nutqi ularning harakatlarini aks ettirishi bilan birga, o'z-o'zidan harakat sifatida ham namoyon bo'lishi kerak. [Чистюхин И.Н. О драме и драматургии. М., 2002.] Ushbu davr dramasi timsollashtirishning ahamiyati va tilni soddalashtirish tendensiyalari kuchaydi. "Tilsiz teatr umuman yo'q" bo'lsa-da, noverbal tilning roli ortdi. Har qanday elementning inkor etilishi keyingi davrda uning ahamiyatini oshirishga olib keldi. "Teatrning ilg'or bosqichida tilning ma'noli farqlanishi aniq bo'ladi. Teatr semiologiyasi emas, teatrning o'zi til haqida o'ylashga majbur qiladi". [Барбой, Ю.К. Теории театра / Ю.К. Барбой. – СПб: "Санкт-Петербургская академия театрального искусства", 2008. – 34–240 с.] Demak, dramatik diskurs dramatik harakatdagi so'zning muqarrar ma'no izlanishi, mazmun va shakl ustida olib boriladigan doimiy ishdur. Nutqning ta'sirchanligi, odatda, mimika, imo-ishora va harakatlar bilan birgalikda dramatik kompozitsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini shakllantiradi. [Балухатый, С.Д. Проблемы драматургического анализа. Чехов / С.Д. Балухатый. – Л.: Academia, 1927. – 186 с.]



Dramatik diskursning tuzilishi va qo'llanilishi quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga oladi:

- Dramatik diskurs personajlar nutqi (dialoglar, monologlar, replikalar) orqali amalga oshiriladigan ijroviy xarakterga ega.
- Dramatik diskursning asosiy birliklaridan biri replika yoki bayondir.

Replikalar dialogga birlashganda lingvistik tahlil murakkablashadi, chunki struktura va semantik tarkib yanada chuqurlashadi. Dialogni o'rganishga bag'ishlangan lingvistik masalalar yetarlicha yoritilmagan. I. P. Zaytseva dialog va dialogik birliklarni tasniflaydi va ularning evolyutsiyasiga e'tibor qaratadi. [Зайцева, И.П. Современная драматургическая речь: Структура, семантика, стилистика: дис. ... д-ра филол. наук: 10.02.01 / Зайцева Ирина Павловна. – Москва, 2002. – 444 с.]

Y. V. Borger dramatik matndagi salbiy reaksiya semantikasi va nutq aktlarini tadqiq etadi. I. A. Tislenkova turli yoshdagi qahramonlar nutqining o'ziga xos xususiyatlarini muhokama qiladi. Dramatik matn uchta komponent birligida amalga oshiriladi: ta'riflash akti (aytish maqsadini ifodalash), joylashtirish akti (talaffuz jarayoni) va o'zgartirish akti (adresatga ta'sir). Buzilish akti dramatik diskursning sarlavha, subtitr, epigraf, bag'ishlash, yordamchi matn, personajlar ro'yxati, sahna ko'rsatmalari va mulohazalar tizimi orqali ro'yobga chiqadi.

Dramatik matnning til xususiyatlari uning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Teatrning rivojlanishi bilan muallifning tuzilishi, lingvistik timsoli va niyatlari o'zgaradi. Avangard va ramziy teatrda rejissyorning "ikkinchi muallif" sifatidagi roli muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, spektaklning sahna qurilishi transformatsiyaga qiziqish uyg'otadi. XX asr dramasi nutqlar yig'indisi obyektga aylanadi. Dramaturg, rejissyor va o'quvchining e'tibori XIX asr dramalaridan farqli o'laroq, alohida personajlar va ularning ichki dunyosiga qaratildi. Dialogning yetakchi shakli monolog bo'lib, u personajning hissiy kechinmalarini, voqealarni baholashini va boshqa sub'ektlar bilan munosabatlarini tasvirlaydi. Bu, ayniqsa, B. Brext dramalariga taalluqlidir, ularda R. Bartning fikricha, "marksistik aql semantik tafakkur bilan uyg'unlashgan".

Dramatik dialog dostonidagi dialogdan farqli asoslarda quriladi. Dramatik va romanistik dialog o'rtasida uchta asosiy farq mavjud:

- Dramada dialog asosan harakatni rivojlantiruvchi paramatn sifatida ishlaydi.
- Dramatik matnda personajlar "vositachi"siz muloqot qiladi, dostonida esa dialog muallif so'zlari orqali kiritiladi.
- Dramatik diskursda muallif nutqidagi illokatsion komponentlar kommunikativ niyatlar bilan chambarchas bog'langan.
- Dramatik diskurs kuzatuvchi nuqtai nazaridan matnda tasvirlangan hodisalarni aniq ifodalashni nazarda tutuvchi kognitiv istiqbollash mexanizmlarini o'rganish uchun alohida qiziqish uyg'otadi.


XULOSA VA TAKLIFLAR

Dramatik nutqning asosiy markazida inson shaxsining holati, kechinmalari va qaror qabul qilish jarayoni turadi. Bu holat uni epik va lirik janrlardan ajratib turuvchi asosiy belgi sifatida namoyon bo'ladi. Drama janrining tarixiy taraqqiyoti va nazariy asoslari, xususan, Aristotel, Goratsiy hamda Didro kabi mutafakkirlarning qarashlari dramatik asarlarning semantik va sintaktik qurilishini chuqurroq anglash imkonini beradi. Tragediya va komediya janrlari orasida oraliq shakl sifatida yuzaga kelgan drama inson ruhiyati va hayotiy ziddiyatlarini ko'rsatishda muhim vositaga aylangan.

Zamonaviy antroposentrik yondashuv dramatik nutqni tahlil qilishda inson shaxsiga asosiy e'tiborni qaratadi. Ayniqsa, nutq birliklarining funksional xususiyatlari va janrlararo farqlari asosida olib borilayotgan tadqiqotlar o'zbek dramaturgiyasida inson obrazining til orqali ifodalanishini yanada chuqurroq tahlil qilishga zamin yaratadi. Kelgusida bu yo'nalishda qiyosiy-pragmatik tadqiqotlarni kengaytirish, dramatik diskursning milliy va madaniy xususiyatlarini aniqlash muhim ilmiy vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Feindt, Peter H.; Oels, Angela (2005). "Does discourse matter? Discourse analysis in environmental policy making". *Journal of Environmental Policy & Planning*, 7(3): 161–173. doi:10.1080/15239080500339638. S2CID 143314592.
2. Ubersfeld, A. *Lire le théâtre*. Paris: Éditions Sociolates, 1977.
3. Аникист, А. Теория драмы от Аристотеля до Лессинга. – М.: Наука, 1967. – 316 с.
4. Балухатый, С.Д. Проблемы драматургического анализа. Чехов / С.Д. Балухатый. – Л.: Academia, 1927. – 186 с.
5. Барбой, Ю.К. К теории театра / Ю.К. Барбой. – СПб: Санкт-Петербургская академия театрального искусства, 2008. – С. 34–240.
6. Бахтин, М. Вопросы литературы и эстетики. – С. 482.
7. Зайцева, И.П. Современная драматургическая речь: Структура, семантика, стилистика: дис. ... д-ра филол. наук: 10.02.01 / Зайцева Ирина Павловна. – Москва, 2002. – 444 с.
8. Каримова, Д.Х. Уровни анализа проксемического поведения в межличностном общении / Д.Х. Каримова // Вестник Ленинградского государственного университета им. А.С. Пушкина. – 2012. – №1. – Т. 1. – С. 229–237.
9. Чистюхин, И.Н. О драме и драматургии. – М., 2002.
10. Шиллер, Ф. Собрание сочинений, т. 7: "Письма". – М.: Гослитиздат, 1957. – С. 482.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.